

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING NUTQINI O'STIRISHDA O'QISH VA RUS TILI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING METODIK IMKONIYATLARI

Sayfullayeva Iroda Barat qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali

"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq o'stirish metodikasi, uning ahamiyati, o'quvchilar nutqini rivojlantirish yo'llari, nutqni egallashning qator aspektlari, nutq o'stirish yo'nalishlari, o'quvchilar nutqini o'stirishda aniq belgilangan talablar, shuningdek fanlar integratsiyasining ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nutq, metodika, nutq aspektlari, adabiy til normalari, tafakkur va notiqlik san'ati, fanlar integratsiyasi, ta'lim sifati.

Nutq - kishi faoliyatining turi bo'lib til vositalari asosida tafakkurni ishga solishdir. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O'quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir. Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda, tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) aktiv amaliy o'zlashtirish tushuniladi.

Jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish zarur:

1. O'quvchi nutqining yuzaga chiqishi uchun vaziyat bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki yoki yozma bayon xohishi va zaruriyatni yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2. Har qanday nutqning manbasi bo'lishi lozim. Bu manba qanchalik to'liq bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3. Nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq ko'pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi sifatida o'quvchilarda har ikkala turdagi nutqni o'stirish muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vositadir. Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat sistemasini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirish materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga oidini tanlash, joylashtirish,

mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi. Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z (so'z birikmasi) ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega bo'ladi. Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqini yaratadi.

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo'lishini ta'minlaydi. Ma'lumotlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchiniig fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha predmetlardan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o'z nutqida qanday bayon eta olishiga qaratiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Rus tili darslarida o'quvchilar til yordamida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Rus tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o'rgatadi. O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda o'quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. Rus tili darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilari quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- turli shakl va mazmundagi multimediyaga asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va nutq qilish;
- turli axborotlarni tahlil etish, baholash;
- jamoada ishlay olish va yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish;
- turli xil rollar va ma'sulyatlarni qabul qila olish;
- boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish.

O'quv predmeti doirasida o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan bilimlar, ularda hosil bo'ladigan ko'nikma va malakalar nuqtayi nazaridan o'qish va rus tili ta'limining xususiyatlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida o'qish darslarida "Rus tili", rus tili darslarida "O'qish" predmetlarining didaktik imkoniyatlaridan o'rinli, samarali foydalanish mumkinligini anglatadi.

Ba'zi o'quvchilar qisqa va cho'ziq tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda, unli va undosh harflarni ajratishda qiynaladi. Buning sababi darslarda tovush-harf tahlili ustida yetarlicha ishlamaslik, savod o'rgatish davrida eshitish va amaliy xarakterdagi turli xil

mashqlardan foydalanmaslikdir. Chunki ular tilning tovush tomoni bilan bog'langan. Masalan, vaziyatga ko'ra qisqa va cho'ziq talaffuz qilinadigan unilarni yozish uchun o'quvchilar bunday tovushlarni eshitib, farqlashi lozim. Aytilishida va yozilishida farqlanuvchi undoshlarni topish malakasini mustahkamlash uchun birinchi darsdan oq so'zlarni to'g'ri tahlil qilish, qisqa talaffuz qilinadigan unli va undosh tovush-harflarni farqlash ustida ish olib borish kerak.

O'quvchilarning og'zaki nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa, hamma tovush va so'zlarni to'g'ri talaffuz etsa, albatta, yozma nutqi ham ravon va tushunarli bo'ladi.

So'zlar lug'aviy ma'nosining o'quvchilar tomonidan anglashilishi nutq o'stirish bilan bog'liq muhim vazifalardan bo'lib, keyingi bosqichda gapdagi muayyan lug'aviy ma'noga ega bo'lgan so'z ustida ishlashda o'z samarasini beradi.

O'quvchilarning ko'pchiligi o'z fikrini ifodalashga qiynaladi, uni mantiqan izchil bayon qila olmaydi, bog'lanishli jummalarni noto'g'ri yoki noo'rin tuzadi. Zero, ular hali gap qurilishini, mustaqil gaplarning o'zaro bir-birlari bilan bog'lanish shartlaridan xabardor emas. Shuning uchun o'qish darslarida amalga oshirilayotgan o'quvchilarda nutq o'stirish borasidagi harakatlarning rus tili darslarida matn ustida ishlashga oid mashqlar bilan uzviy bog'lab olib borilishini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкил этиш тамойиллари. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 547-557 бетлар.
2. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.
3. Расулова З.Д. (2021). Талабаларнинг креативлигини ривожлантиришда масофавий таълимнинг ўрни. *Science and Education*. Vol. 2, Issue 10, 439-448 бетлар.
4. Khandamova Feruza Bakhodirovna. (2023). *TEACHER'S SPEECH: GIVING INSTRUCTION TO LEARNERS IN FOREIGN LANGUAGE CLASSES. Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities*, 2(7), 6–10.
5. Umidovna, Farkhodova Shakhzoda, and Suyunova Aziza Kholmuminovna. "SOCIAL FACTORS AND THEIR FUNCTIONING IN SOCIOLINGUISTICS." *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ* 21.3 (2023): 68-70.